



P.I.CHAYKOVSKIY IJODIGA CHIZGILAR...

Kamola Xasanova

*Farg'ona davlat universiteti "San'atshunoslik" fakulteti
"Musiqta'limi" yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Annotasiya: Ushbu maqolada atoqli rus kompozitori, dirijor P.I.Chaykovskiy ijodiy yo'li borasida fikr-mulohazalar atroficha bayon etiladi. Shuningdek, ijodkorning ijodiy tafakkuri, rus musiqa san'atiga qo'shgan hissasi ham maqolada o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: kompozitor, musiqa, musiqiy ijod, ijodiy tafakkur

Har bir shaxsni o'rghanmoqchi bo'lsa, dastlab uni qilgan ishlari haqida o'rghanmoq darkor. Shulardan biz o'rghanmoqchi bo'lgan kompozitorlardan biri yetuk rus musiqasini namoyandalaridan bo'lmish - P.I.Chaykovskiydir. Bu kompozitor rus musiqasini shakllanishi uchun o'z asarlari bilan hissa qo'shgan. Chaykovskiy yetuk huquqshunos ham bo'lgan va o'z asarlarida kuchli darajada inson psixologiyasini yoritib bergan. Kompozitorni shunday gapi borki, "Agar men rus musiqasi shuhratining keng yoyilishiga ko'mak berishim mumkin ekan - hamma narsani tashlab, vatanim va san'atim uchun foydam tegishi mumkin bo'lgan joyga bormoqlik mening asosiy burchim emasmi"?

U XIX asrning yirik kompozitorlari orasida o'zining iste'dodi bilan alohida ajralib turadi. Faqatgina kompozitor bo'libgina qolmay dirijyor, musiqiy tanqidchi, jamoat arbobi bo'lib, M.I.Glinka va A.S.Dargomijskiy an'analarini davomchisi sifatida rus klassik kompozitorlari qatoridan munosib joy olgan. Estetik tamoyillari XIX asrning 60-70-yillarida rus jamoatchiligi madaniyati va badiiyatining yuksalishi, adabiyot, rassomchilik va musiqa san'atining gullab yashnagan davrida shakllanadi. Dunyon o'tkir fojiaviy tuyg'u bilan his qilish ehtiyojini ertangi hayotga bo'lgan qat'iy ishonch bilan uyg'un holatda idrok etish Chaykovskiyning muhim sifatlaridan biri edi.

Ruhshunos - san'atkor sifatida u hayotiy haqiqatni, zamondoshlarining murakkab va ziddiyatli olamini ulkan emotsiunal kuch bilan o'z asarlarida aks ettirdi. O'z davri uchun xos bo'lgan umumlashma qahramonlar obrazini yaratdi. Qalb tug'yonlarini tadqiq qiluvchi favqulodda ulkan iste'dodi, ruhiy jarayonning rivojlanishini, undagi sir - sinoatlar, hissiyotlarining nozik qatlamlarining mohirlilik bilan tasvirlanishi uni F.Dostoyevskiy, L.Tolstoy, A.Chekhov kabi yirik rus ruhshunos adiblari bilan yaqinlashtiradi.



U o'zining operalarida, I.S.Turgenev yaratgani kabi, ayollarning bir qator shoirona obrazlarini yaratdi. L.Tolstoy singari muhabbat g'oyasi uni ham o'limga qarshi turadigan yuksak hayotbaxsh kuch sifatida o'ziga jalg qildi. Ijodkorlik dahosi hayratomuz ichki g'ayrat va zahmatkashlik xislatlari bois P.I.Chaykovskiy yuksak darajada ko'tarildi.

P.I.Chaykovskiy insonparvar va taraqqiyparvar ijodkor sifatida kishilarning erkinligi va baxtga intilishini musiqada yorqin ifoda etdi va tarixda muhabbat va tabiat go'zalligining otashin kuychisi sifatida iz qoldirdi. P.I.Chaykovskiyning ijodida aks etgan asosiy tamoyillar insonga mehr-muhabbat, rahm-shafqat, bag'rikenglik va samimiylidkan iborat edi.

XIX asrning 2-yarmida rus musiqa madaniyatining shuningdek, jahon musiqa madaniyatining buyuk namoyandasini Chaykovskiy o'z asarlari bilan jahon musiqa madaniyatiga katta hissa qo'shdi.

Uning ijodi mehnatsevarlikning va tinimsiz izlanishlari natijasida yuzaga keldi. Chaykovskiy ijodiyoti o'zining janrlari va obrazlarining rangbarangligi va boyligi bilan ajralib turadi. Uning obrazlari rus xalqining o'tmishini va hozirgi kunini, tabiat manzaralarini ko'rsatib berdi. Agarda Musorgskiy va Borodinlar o'z asarlarida keng ommani ko'rsatishga intilgan bo'lsa, Chaykovskiy yakka insonning (shaxsning) ichki hissiyotlarini, uning ruhiy kechinmalarini o'z asarlarida olib berdi. Kompozitor ijodining asosiy g'oyasi - insonga baxt keltiruvchi, xarakterlarga qarshi bo'lgan qora kuchalarga qarshi edi.

Chaykovskiyning "Charodeyka", "Pikovaya dama" kabi o'ndan ortiq operalari va 6-simfoniyasi kabi fojiaviy ruhda asarlari mavjud bo'lishiga qaramasdan, uning musiqasi asosan mayin lirikaga va optimistik xarakterga to'la bo'lib keladi.

Chaykovskiy 1840-yil Rossiyaning Votkinsk shahrida tog' injeneri oilasida dunyoga keladi. Uning musiqaga bo'lgan qiziqlishi, qobilyati ko'p kompozitorlar qatorida juda erta paydo bo'ladi. Lekin o'z zamonasining odatlariga ko'ra uni Peterburgdagi huquqshunoslik bilim yurtiga o'qishga beradi.

1850-1859-yillarda u shu bilim yurtida ta'llim olib, keyin davlat idorasida (chinovnik) ishlaydi. Lekin shu davrda u Peterburgda tashkil etilgan musiqa to'garaklariga qatnab musiqa nazariyasidan bilimlarni egallaydi. 1862-yil u o'z kasbini tashlab yangi ochilgan Peterburg konservatoriyasiga o'qishga kiradi. Konservatoriyanı muvaffaqiyat bilan tugatadi. Chaykovskiy 1865-yildan boshlab Moskva shahriga keladi va bu yerda yangi tashkil etilgan konservatoriyaning professori lavozimida ishlay boshlaydi. 10 yil davomida Chaykovskiy ijodkor



kompozitor o'qituvchi va jamoat arbobi sifatida tinimsiz mehnat qildi, ushbu davr mobaynida birin-ketin yozilgan asrlaridan konsert va simfoniyalari, "Cherevichki" operasi, Chaykovskiy o'zining buyuk asarlaridan 4-simfoniyasi va "Yevgeniy Onegin" operasini tugatgan edi. Bu asarlar Chaykovskiy ijodining eng gullagan davrini ko'rsatadi va shuningdek, rus musiqa madanyatining bundan keyingi rivoshlanishga o'z hissasini qo'shdi. (ta'sirini ko'rsatdi).

1880-yillardan boshlab kompozitor ijodining mavzu va janr doirasi kengayib bordi. Bu uning "Orleana qizi", "Mazepa", "Chorodeyka" operalarida, "Manfred" nomli dasturiy 5-simfoniyasida yaqqol ko'zga tashlanadi.

1877-yildan boshlab Chaykovskiy Yevropa va Amerikaning yirik shaharlarida bo'lib dirijyorlik faoliyatini olib boradi, rus musiqasini keng targ'ib etadi. Chet davlatlarda katta muvaffaqiyat qozonadi.

Hayotini so'ngi davrida u o'zining eng fojiaviy asarlari "PIKOVAYA DAMA" va 6-simfoniyasi bilan bir qatorda lirk xarakterdagi "IOLANTA" operasi, "UYQUDAGI GO'ZAL" va "SHELKUNCHIK" baletlarini yozadi. Chaykovskiy 1893-yili 16-oktabrda Peterburgda o'zining 6-simfoniyasiga dirijyorlik qiladi. Oradan bir hafta o'tib olamdan o'tadi.

Musiqa haqidagi ilk taassurotni u onasidan oladi. Onasi A.Alyabyevning "Bulbul" kuylagani umrbod esidan chiqmaydi. P.I.Chaykovskiy 4 yoshga to'lganidan so'ng farang va nemis tillarini, 5 yoshida fortepianoda chalishni o'rgana boshlaydi. 10 yoshga to'lgach Peterburgdagi huquqshunoslik bilim yurtiga o'qishga qabul qilinadi. P.I.Chaykovskiy simfonik konsertlarga qatnashib, rus va G'arb kompozitorlarining asarlari bilan tanishdi. M.I.Glinkaning "Ivan Susanin", V.A.Motsart "Don Juan" operalari unda juda katta taassurot qoldiradi. Keyinroq, u M.I.Glinkani "Ivan Susanin" partiturasini o'rganib, uni rus operasining yetuk operasi deb hisoblaydi. 1854-yili onasining vabo kasalligi bilan to'satdan vafot etishi P.I.Chaykovskiy uchun kutilmagan zarba bo'lди. Shu paytda otasi keksayib, kuchsizlanib qolgan edi. Ukalari va singlisining tashvishlarini u o'z zimmasiga olishga majbur bo'ladi. 1859-yilda P.I.Chaykovskiy huquqshunoslik bilim yurtini tugatib, tiulyar maslahatchi unvoni bilan Adliya Vazirligida xizmat qilsa-da, musiqa uning qismati ekanligini tobora anglay boradi. O'z xotiralarida: "Men musiqa nazariyasini bilan juda ko'p shug'ullangan edim va ertami kechmi, albatta, kasbimni almashtirishimga ishonch hosil qildim", deb yozgan edi. 21 yoshida u A.G.Rubinshteyn tomonidan tashkil etilgan Rus musiqa jamiyati qoshidagi musiqa sinflarida dars ola boshlaydi. P.I.Chaykovskiy 1862-yilda Peterburg konservatoriyasining ikkinchi bosqichiga qabul qilindi. U yerdagи



ustozlari cholg'uchilik hamda musiqa yozish darslari bo'yicha taniqli pedagog A.G.Rubinshteyn, garmoniya va kontrapunkt darslaridan Zarema ustozlik qildi. Peterburgdagi konservatoriya hamda rus musiqa jamiyati ochilishida tashabbus ko'rsatgan Anton Grigorevich Rubinshteyn erishayotgan muvaffaqiyatlari uchun P.I.Chaykovskiyni o'z stependanti qilib tayinlaydi, hatto garmoniya darsida o'rniغا mashg'ulotlar o'tishni ham topshiradi. Keyinchalik, P.I.Chaykovskiy o'zining fortepiano uchun oltita pesasini, ekspromtini va xor uchun "A.G.Rubinshteynga salom" nomli asarini ustoziga bag'ishlaydi va bir qator simfonik asarlariga dirijyorlik qiladi. Fortepianodan tashqari cholg'ularni ham chala olardi. Shulardan Professor Genrix Shtile qo'lida organni, mashhur vertuozi Sezar Chiardi rahbarligida esa fleyta chalishni o'rganadi. Rixard Vagner dirijyorlik qilgan L.Betxovenning simfoniyalari uning xotirasida o'chmas iz qoldiradi. 1865-yilda P.I.Chaykovskiy xor va orkestr uchun kantantasi bilan Peterburg konservatoriyasini muvaffaqiyatli tugatgani uchun katta kumush medal sohibi bo'ladi.

"B.V.Asafyev Pyotr Il'ich Chaykovskiyning musiqa ijodiga shunday tavsif beradi. "Tinglovchi go'yo shularni his etadi: Musiqa ham unib o'sadi, gullaydi hissiyotlar ham huddi qarama-qarshiligiga murojaat etib, yana o'zining tanish qiyofasini qabul qilganidek boyiydi unda qayg'u va shodlik, yorug'lik va zulmat, sevgi va nafrat o'zaro qiyoslanadi asta-sekin rivojlanish jiddiylik bilan bog'lanadi".

P.I.Chaykovskiy ijodining tadqiqotchisi bo'lgan I.V.Tumanina shunday deb yozadi. "Hayot va mamotning azaliy kurashi turliy davrlarda yaratilgan bir qator badiiy asarlarda o'z aksini topgan. Onasidan erta ayrylgan P.I.Chaykovskiy nazarida doimo o'lim insonlarni hayotini va ular uchun qadrli bo'lgan narsalarni shafqatsiz yakson qiladigan mash'um taqdir edi. U butun vujudi bilan o'limdan nafratlanardi. Barcha tirik mavjudot qachondir o'limga mahkum etilganligi, tabiat qonuniga binoan, uning bag'rida yashayotgan jonzotlarning o'limi boshqalariga hayot baxsh etishi haqidagi fikrga, xotirjam va faylasufona munosabatda bo'la olmasdi. U hayotda o'zining butun borlig'ini sevardi. Hayot jomini qizg'anchiqlik bilan sipqoradi. Tiriklik va o'limning abadiy, murosasiz kurashidan yuzaga kelgan fojia, hayot va mamot mavzusi ijodining ilk davridan boshlab fojiaviy xarakterdagi asarlarida aks etgan."



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. L. Urmanova "Rus musiqasi tarixi". Toshkent-2011.
2. Russkaya muzikalnaya literatura Vip-1 - E.L.Frid 1979 g.
3. **Alshvang A. A. Chaykovskiy.** - M., 1959.
4. **Anshakov, B.Ya. Bratyā Chaykovskiye: ocherk** / B.Ya. Anshakov, predisl. K.Yu.Davidovoy. - Ijevsk: Udmurtiya, 1981. – 84 s.
5. **Ilya Petrovich Chaykovskiy: jizn i deyatelnost.** Materiali k 180-letiyu so dnya rojdeniya / sost. Anshakov B. Ya. – Ijevsk: Izd-vo «Udmurtiya», 1976 – 89 s.
6. **Baskin, V. S. P. I. Chaykovskiy. (Ocherk yego deyatelnosti)** // Russkiye kompozitori. T. 4. - SPB, 1895.
7. Davidov, Yu.L. Zapiski o Chaykovskom / Yu.L.Davidov. – M.: Muzgiz, 1962. – 115 s.
8. Хожимаматов А. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНинг НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN". JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE.
9. Jalilova, R. (2022). TASVIRIY SAN'ATDA QALAMTASVIR TEKNOLOGIYASINI O'QITISHNING DIDAKTIK PRINSIPLARI. *Scienceandinnovation*, 1(C2),
10. Jalilova, R. (2022). THE DEVELOPMENT OF VISUAL ART IN PENCIL DRAWING, PAINTING, COMPOSITION AND INDEPENDENT PAINTING. *Science and Innovation*, 1(3),.
11. Jalilova, R. (2022). HEREDITARYDISEASES. Евразийский журнал академических исследований, 2(11),
12. Jalilova, R. Q. (2022). About identification of one model of nonstationary filtration. *Математическое и компьютерное моделирование естественно-научных и социальных проблем: материалы XVI Всероссийской научно-практической конференции*, 131.
13. Jalilova, R. Z. (2023). Representation of Human Face, Hands, Clothes in Painting and Pencil Drawing. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 18,
14. Jalilova, R. (2023). EDUCATIONAL METHODOLOGY OF AESTHETIC EDUCATION OF LANDSCAPE PAINTING. *Science and innovation*, 2(C7),



15. Jalilova, R. (2023). HISTORY OF LANDSCAPE IN MIDDLE ASIAN WORKS OF ART, PHILOSOPHICAL AND AESTHETIC METHODOLOGY OF EDUCATIONAL PROBLEMS AND SOLUTIONS. *Science and innovation*, 2(C7),
16. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.
17. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG 'U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
18. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O 'ZBEK SAN'ATINING ZABARDAST HOFIZI JO 'RAXON SULTONOV. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
19. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *GospodarkaiInnowacje.*, 34,
20. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O 'ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34,
21. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5),
22. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA "LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4),
23. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4),
24. Khojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8,
25. Hojimamatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2),
26. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafroz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).



27. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2),
28. Achildiyeva, M., & Ikromova, F. THE SCIENCE OF MUSIC IN THE FORMATION OF HUMAN VALUES IN YOUNG PEOPLE'S LIFE. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, Vol 10 Issue02, Feb 2021 ISSN 2456-5083
29. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Shashmaqomsaboqlari: "Navo" maqomixususida. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, 11(01),
30. Achildiyeva M 2021 Academic YunusRajabi and His Scientific Heristage *Annals of Romanian Society for Cell Biology* 25(4)
31. Achildieva, M., Ikromova, F., Abutolipova, M., & Khaydarova, O. (2021). The third renaissance towards ascending. *European Scholar Journal*, 2(9),
32. Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., & Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6),
33. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2020, December). THE PLACE OF UZBEK MUSIC IN THE ART. In *Archive of Conferences* (Vol. 10, No. 1, pp. 90-93).
34. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.
35. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET "TOMARIS" IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE SPECTRUM *Journal of Innovation, Reforms and Development* (2022) ISSN (E):2751-1731
36. Achildieva M, Butabayeva N, Nosirova M. A GLANCE AT THE SCIENTIFIC AND CREATIVE HERITAGE OF BORBAD MARVAZI *European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)* Vol. 4 No. 05, May 2023 ISSN: 2660-5643
37. Achildiyeva M. The Role of Music in Forming the Artistic-Aesthetic Taste of Youth *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7 | 2023
38. Xojimamatov A Evolution of Philosophical Views on Music and National Musical Heritage *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7 | 2023



39. Achildiyeva M. Atkiyoeva R. O'ZBEK VA JAHON SAHNALARIDA KATTA ASHULANING O'RNI VA AHAMIYATI *Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4384
40. Xojimamatov A. Atkiyoeva R."VODIY BULBULI" TAVAKKAL QODIROVNING IJODIY MEROSI BUGUNGI KUN NICOHIDA *Journal of Innovation, Creativity and Art* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4287
41. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET "TOMARIS" IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development* ISSN (E):2751-1731 15-19 bet (Berlin Germany 2022)
42. Maxfuzakhon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM REDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL "*An open accyess, peyer reviyewyed multidisciplinary journal*" 2 (4)
43. Achildiyeva M, Ikromova F Choir Art in Uzbekistan BotirUmidjonov *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences* (Brussel, Belgium 2022) ISSN 2795-7683
44. Achildiyeva M,Ikromova F (2021) ABOUT MAHMUDJON TOJIBOYEVS PEDAGOGICAL ACTIVITY *GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)* 9(5)
45. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. XX-АСИИНГ «ХАМНАФАС» ХОФИЗЛАРИ" ENGLAND" MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION Vol. 10 No. 1 (2023)
46. Xojimamatov A The Process of Changes and Depreciation of the Aesthetic Effectiveness of Musical Values under Globalization *Journal of Creativity in Art and Design* Volume: 2 Issue: 1 Year: 2024 11 <http://journals.proindex.uz>
47. Achildiyeva, M Historical Development of Uzbek Musical Art Stages and Ways of Improvement *Journal of Creativity in Art and Design* Volume: 2 Issue: 1 Year: 2024 20 <http://journals.proindex.uz>